

ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ REJIMLARINI QO‘LLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Payziev Umedjon Arzikulovich

Payziev_u@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada erkin iqtisodiy hududlar faoliyati samaradorligini oshirishda soliq rejimlarini qo‘llash tartibini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. Mavzu doirasida mahalliy va xorijlik iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o‘rganilib, erkin iqtisodiy hududlarda soliq rejimlarini qo‘llash tartibini takomillashtirishga takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, soliq imtiyozlari bo‘yicha tahliliy ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, yakunida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zonalar, erkin iqtisodiy hududlar, soliq, soliqqa tortish, soliqqa tortishdagi muammolar, erkin savdo zonalar, maxsus sanoat zonalar, xorijiy investorlar, erkin ishlab chiqarish zonalar, erkin ilmiy-texnikaviy zonalar, alohida bojxona tartiboti, alohida valyuta tartiboti.

Annotation: the article carried out a study on improving the procedure for applying tax regimes in improving the effectiveness of the activities of free economic regions. Within the framework of the topic, studies of domestic and foreign economic scientists were studied and proposals were developed to improve the procedure for applying tax regimes in free economic regions. Also, analytical work on tax benefits was carried out, at the end of which conclusions were formed.

Keywords: special economic zones, free economic regions, tax, taxation, problems in taxation, free trade zones, special industrial zones, foreign investors, free production zones, free scientific and technical zones, separate customs procedures, separate currency procedures.

KIRISH

Erkin iqtisodiy zonalar – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko‘p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo‘llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996 yilning 25 aprelda mamlakat parlamenti O‘zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida" qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohaslarining rivojlanishi, aholini ish bilan ta‘minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me‘yoriy huquqiy asos yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 yanvar kuni 4 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni imzoladi. Samarqand viloyatining Urgut tumanida, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shaxrida va Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinishi belgilandi.

Soliq tizimining samaradorligi davlat byudjetiga mablag‘larni o‘z vaqtida va kutilgan darajada kelib tushishini ta‘minlash hamda xo‘jalik sub‘ektlari faoliyatiga optimal darajada ta‘sir etishi bilan baholanadi. Soliqlar davlatning markaziy byudjeti bilan birga mahalliy boshqaruv organlarining daromadlarini ham shakllantirishning asosiy manbasi bo‘lib hisoblanadi. E‘tiborli tomoni shundan iboratki, mamlakatda shakllangan qonunchilik tizimi yoki soliq qonunchiligi uning barcha hududlarida yagona tizim va ko‘rinishga ega bo‘lsada, u hududlar taraqqiyoti va rivojlanish darajasiga turli xil tarzda ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, mamlakat hududlari iqtisodiy taraqqiyotining keskin darajada tabaqalashuvi sharoitida bu jarayon yanada jiddiy ko‘rinish oladi.

Erkin iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishning muhim vositasi korxonalar daromadidan to‘lanadigan soliqlar uchun imtiyozlar berish, amortizatsiya ajratmalarining muddatlarini kamaytirish va soliq kreditlari taqdim etishdir¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-son Farmoni bilan belgilangan investitsiya shartlariga ko‘ra bir qancha turdagi soliqlardan ozod qilish belgilandi.

Berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish holatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2016-2018 yillar davomida umumiy qiymati 289 444,9 mln. so‘mlik soliq imtiyozlaridan O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari foydalanishgan².

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlardan T.Farole, J.Zhan, I.Shablinskiy, V.Popov, T.P.Danko, K.Yeongjin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va

¹ Камалов М.М. Эркин иқтисодий зоналарнинг ҳуқуқий мақоми. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. 5-бет.

² Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 244 b

maqolalarida erkin iqtisodiy hududlar turlari, faoliyati va investitsiyalarni jalb qilish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning ayrim jihatlari va yechimlari respublikamiz iqtisodchi olimlari A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov, S.S.Mirzalieva, Sh.I.Mustafaqulov, A.A.Ostonaqulov, M.A.Raimjonova, S.S. Bozarovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan va o‘rganilgan³.

I.A.Mayburov tomonidan berilgan soliq mexanizmi ta’rifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, soliq mexanizmi – o‘zida mamlakatning mavjud bo‘lishini ta’minlash uchun uning soliq tizimini boshqarish tartibini belgilaydigan huquqiy me’yorlar tizimi va tashkiliy choralarni ifodalaydi. Soliq mexanizmini tashkil etish poydevori – mamlakat soliq tizimini boshqarish funksiyalarini amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan aniq sub’ektlarni, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘indisini, soliq munosabatlarining sub’ektlar tarkibini va bu mexanizmni amalga oshirishning aniq qonun-qoidalarini belgilaydigan soliqqa oid qonun hujjatlari hisoblanadi⁴.

Yuqoridagi olimlar tomonidan yaratilgan iqtisodiy adabiyotlarda esa erkin iqtisodiy hududlarga turlicha ta’rif berilgan. Xususan, T.P.Danko va Z.M.Okrutlar erkin iqtisodiy hududlarni “...qulay investitsiya muhitini yaratish hamda ishlab chiqarishni, savdo-sotiqni, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmi”⁵ sifatida baholaydilar.

Mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlari tomonidan erkin iqtisodiy hududlardagi imtiyozli tartib va ma’muriy boshqaruv sohasiga ko‘proq e’tibor qaratilgan holda turlicha yondoshiladi. Shu sababli, A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminovlarning fikricha, erkin iqtisodiy hudud – bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida erkin iqtisodiy hududlar faoliyati samaradorligini oshirishda soliq rejimlarini qo‘llash tartibini takomillashtirish va soliq imtiyozlarini kengaytirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

³ Ostonaqulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017

⁴ Maqola. Jo'rayev A. "Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish", Toshkent 2013

⁵ Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998. С:168.

⁶ Вахабов А.В., Хажикабиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. –Т.: Молия, 2010. 180-бет

Respublikamizda jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, mintaqalarni sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, ularni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb etishni kengaytirishda erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarini izchil rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soladigan mustahkam qonunchilik va me'yoriy baza yaratildi, ularni rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadigan keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda 205 preferensiyalar tizimi shakllantirildi. Hozirgi paytda Respublikamiz mintaqalarida 15 erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda⁷.

Hududlarni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirishda erkin iqtisodiy zonalar hissasini oshirish, loyiha bo'yicha boshqarish tamoyillari asosida hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga⁸ muvofiq ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning muhim talablaridan biri innovatsion va investitsion faoliyat turlarini kengaytirish, qulay investitsiya muhitini yaratishda davlatning bevosita qo'llab-quvvatlash unsurlarining rolini oshirish, xo'jalik sub'ektlarining o'z faoliyat yo'nalishlarini innovatsiyalar asosida mustaqil va erkin belgilash muammolari hal etilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktyabrda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat onalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3356-sonli Qarori alohida o'z ahamiyatli jihatlari bilan dolzarbligini qayd etish mumkindir.

Qarorga ko'ra, tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatdosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun g'oyat qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, shuningdek, respublika mintaqalarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, buning asosida yangi ish joylarini tashkillashtirish va aholi

⁷ Ostonoqulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017

⁸ Bozarov S. S. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018

daromadlarini oshirish maqsadida 2017 yilning 1 dekabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini boshqarish hamda ular faoliyatini tashkil etishning yangi tizimi joriy etilishi belgilandi.

Erkin iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati erkin iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish ob‘ekti foydalanishga qabul qilingan sanadan boshlab hisoblanadi. Shuningdek, soliq qonunchiligi o‘zgarganida erkin iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha ular ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanada amal qilgan norma va qoidalarni qo‘llashga haqlidirlar, aksiz solig‘i olinadigan tovarlar soliqqa tortilishini tartibga soluvchi hujjatlarning normalari va qoidalari bundan mustasno⁹.

2017 yilning 1 noyabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari - tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan tuziladigan import shartnomalarini O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasida ekspertizadan o‘tkazish talabi bekor qilindi

Tijorat banklari amaldagi kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari – korxonalarining pul oqimlarida vaqtinchalik nomutanosiblik ro‘y bergan hollarda kreditni qaytarish muddatini keyinga ko‘chirish yoki muddatini uzaytirish yo‘li bilan asosiy qarz yuzasidan to‘lovlar miqdorini kamaytirish bo‘yicha kredit shartnomalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish; kredit buyurtmanomasini ko‘rib chiqish uchun erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilaridan vositachilik haqi undirilishini bekor qilish va abonent haqi to‘lashdan ozod qilish; erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihasi ishga tushirilgunga qadar, ammo normativ muddatdan ko‘p bo‘lmagan davrda berilgan kreditlar yuzasidan qo‘shib hisoblangan foizlarni kapitallashtirish chora-tadbirlarini ko‘rishi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi “Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3175-sonli Qarori ham alohida ahamiyatlidir.

Mazkur Qarorga ko‘ra, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- erkin iqtisodiy zonalar hududida, birinchi navbatda, klaster yondashuvlardan keng foydalangan holda erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari o‘rtasida yaqin kooperatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘yish, mahalliy xom ashyo va materiallar asosida

⁹ Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadaliev, M. K., & Kodirov, A. (2022). O‘zbekistonda “yashil moliya” tizimini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish yo‘nalishlari. Господарка и Инновасже.,

raqobatbardosh tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha yuqori texnologiyali zamonaviy korxonalar tashkil etish;

- erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashgan sanoat korxonalari va infratuzilma ob'ektlarida yangi malakali ish o'rinlari tashkil etishni 207 ta'minlash, shu asosda respublika mintaqalari aholisining bandlik darajasini va daromadlarini oshirish;

- mahalliy mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va dunyoda tanilgan brendlar ostida yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun hududida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilingan mintaqalar ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- yetakchi xorijiy kompaniya va korporatsiyalar ishtirokida yuqori texnologiyali zamonaviy innovatsion ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalar, avvalambor, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha eng qulay sharoitlar yaratish;

- ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish, shuningdek, sifatli logistika xizmatlari ko'rsatish bo'yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

- erkin iqtisodiy zonalar yo'nalishlari bo'yicha kadrlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib va ularning erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashgan sanoat korxonalari va infratuzilma ob'ektlarida ishlab chiqarish amaliyoti o'tashini nazarda tutgan holda, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish¹⁰.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimi, ularning birinchi o'rinbosarlari yarim yil va yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga erkin iqtisodiy zonalar hamda kichik sanoat zonalarini rivojlantirish va ularning faoliyati samaradorligini oshirishga doir amalga oshirilayotgan ishlar haqida shaxsan hisobot berishi lozimligi alohida qayd etildi.

Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun qonunchilikda belgilangan soliq va bojxona imtiyoz hamda preferensiyalari, valyuta rejimining alohida shartlariga so'zsiz rioya etilishini, ularning xo'jalik faoliyatiga aralashuvga yo'l qo'ymaslik va erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida texnologik uskunalari, materiallar, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarni olib kirishda taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi lozimligi belgilab berildi.

Sirdaryo viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda oqilona foydalanishini ta'minlash, shu asnoda yangi ish o'rinlari tashkil etish va mahalliy aholining daromadlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi "Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3175-sonli Qarori

Prezidentning 2018 yil 12 aprelida qabul qilingan “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli Farmoni o‘z dolzarbligi bilan alohida ahamiyatlidir. Farmonga ko‘ra, “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi filiali va Sirdaryo viloyatining Yangier shahridagi kichik sanoat zonasi negizida tashkil etilishi belgilandi. “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkindir. “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasi faoliyat yuritadigan muddat davomida uning hududida alohida soliq va bojxona tartiblari amal qiladi¹¹.

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va amaldagi moliya-soliq mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- xorijiy kompaniya va firmalarning respublika erkin iqtisodiy zonalar hududlarida o‘z biznesini yuritish uchun mamlakatimizda yaratilgan qulay sharoitlarni keng yoritish va bo‘ljak investorlarni, birinchi navbatda, xorijda ushbu sharoitlar bilan tanishtirish ishlarini yanada takomillashtirish;

-erkin iqtisodiy zonalar hududida tashkil qilingan xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida sanoat va kooperatsiya aloqalari yanada rivojlantirish, zarur logistika tizimini takomillashtirish;

- istiqbolli loyiha takliflarini shakllantirish, chuqur tahlil qilish hamda baholash maqsadga muvofiqligi, asosliliigi va rentabelligi asosida erkin iqtisodiy zonalar hududida amalga oshirish uchun tanlab olish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish, jumladan, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ob’ektlarni ishga tushirish va yakuniy maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan yagona yaxlit tizimni yaratish;

- erkin iqtisodiy zonalarda taqdim etilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiya hajmiga bog‘liq ravishda berilib, shu jumladan ekvivalentda:

•300 ming AQSh dollaridan 5 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda — 7 yil muddatga;

•5 mln AQSh dollari va undan ortiq investitsiya kiritilganda — 10 yil muddatga, keyingi 5 yil mobaynida foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi 209 stavkalari amaldagi stavkalardan 50 foiz past miqdorda qo‘llanilgan holda berilishi maqsadga muvofiqdir.

- erkin iqtisodiy zonalar salohiyatidan yetarlicha foydalanish, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan raqobatdosh, eksportbop va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ichki bozorni iste’mol tovarlari va butlovchi buyumlar bilan ta’minlash, respublikada eksport

¹¹ Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

salohiyatini kengaytirish va valyuta tushumlari miqdorini ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini ro‘yxatga olish, ularga yer uchastkalarini ajratish, investitsiya loyihalarini ma‘qullash, korxonalarni tashqi muhandislik infratuzilmasiga ulash, tadbirkorlarga ishlab chiqarayotgan mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda sotishga ko‘maklashish jarayonlarini jadallashtirish.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jadal rivojlanishi, ularga xorijiy investorlarni jalb etish, rezidentlarni ichki investitsiya salohiyatini erkin iqtisodiy zonalar uchun yo‘naltirish, erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat samaradorligini uzluksiz ta‘minlash – mamlakatning investitsiyaviy salohiyatiga ta‘sir etuvchi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat ko‘rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risidagi” O‘RQ604-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi.

Erkin iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishning muhim vositasi korxonada daromadidan to‘lanadigan soliqlar uchun imtiyozlar berish, amortizatsiya ajratmalarining muddatlarini kamaytirish va soliq kreditlari taqdim etish hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy hududlar ishtirokchilaridan soliq undirishni takomillashtirishda soliqlarni hisoblab chiqish va uni oldindan prognoz qilib borish kelgusi yildagi mol-mulk va er soliqlarning stavkasini belgilovchi mas‘ul malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish kerak.

Erkin iqtisodiy hududlar ishtirokchilariga bir qator soliq imtiyozlari berilmoqda. Soliq imtiyozlari faqat investor va Erkin iqtisodiy hudud direksiyasi o‘rtasida tuzilgan Erkin iqtisodiy hudud hududiga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan erkin iqtisodiy hudud ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Erkin iqtisodiy hududlarning ishtirokchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalaniladilar. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati erkin iqtisodiy hudud ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e‘tiboran hisoblab chiqariladi. Erkin iqtisodiy hududning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik sub‘ekti erkin iqtisodiy hudud ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan erkin iqtisodiy hudud ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan o‘yning birinchi kundan e‘tiboran foydalanishga haqli emas.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integratsiyalashuviga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirishning o‘ziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim soha bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning erkinlashtirish sharoitida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xankeldieva G.Sh. Turistik xizmatlar sohasida investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari : muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. // “Theoretical & Applied Science” xalqaro ilmiy jurnali, Filadelfiya, AQSh. 10, (78) , 20 19. – 160-165 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 2020 yil 17-fevraldagi 604-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar foliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF4853-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 avgustdagi “Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3175-sonli Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrda "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi.
6. Maqola. Jo‘rayev A. “Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish”, Toshkent 2013.
7. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 244 b
8. Ostonoqulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017.
9. Bozarov S. S. O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.
10. Xankeldieva G.Sh. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning xususiyatlari // Fan va amaliyot byulleteni. 2017 yil. 11-son (24). 357-363- betlar.
11. Kamalov M.M. Erkin iqtisodiy zonalarning huquqiy maqomi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYU, 2018. 5-bet.

12. Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-2018. С:168
13. Vahabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-bet
14. Burxonovich, M. R. (2022). The Importance Of Basic Materials And Technological Losses In Increasing Economic Efficiency In The Formation Of Cost. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 727-732.
15. Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadalievna, M. K., & Kodirov, A. (2022). O‘zbekistonda “Yashil Moliya” Tizimini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish yo‘nalishlari. Господарка и Инновасже., 28, 90-96.
16. Burkhonovich, M.R., & Kadirovna, A.M.(2022). Improvement of organizational economic impact of product cost reduction on the basis of cost-effective use of resources. Thematics Journal of Economics, 8(1).
17. Burkhonovich, M. R., Solijonovich, M. S., & Muhridin, A. (2022). Direction for determining and improving the level of labor productivity. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 103-108.
18. Burkhanovich, M. R., Ortiqaliyevna, B. M., & Mashrabkhan, R. (2022). Labor and payment account. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 138-143.
19. Burxonovich, M. R., & Ortiqaliyevna, B. M. (2022). Conditions for improving the standard of living of the population. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 44-48.
20. Kadyrovna, A. M., Burkhanovich, M.R., & Ortikaliyevna, B. M. (2022). Demand and supply for labor forces. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 85-90.
21. Tursunov, O. B. (2022). Transport Infratuzilmasining nazariy asoslari.
22. Tursunov, O. B. (2022). Transport infratuzilmasining mazmuni, tarkibi va mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri. so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 1(2), 190-196.
23. Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadalievna, M. K., & Kodirov, A. (2022). O‘zbekistonda “yashil moliya” tizimini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish yo‘nalishlari. Господарка и Инновасже., 28, 90-96.
24. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 55- 61.
25. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 123-127.

26. Tursunov, O. B. (2022). Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida transport xizmatlari va infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari va hududiy xususiyatlari. Ta'lim fidoyilari, 8, 196-204.
27. Tursunov, O. (2022). Transport xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 4-9.
28. Tursunov, O. B. (2022). O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida transport xizmatlari faoliyatini boshqarish va samaradorligini oshirish yo'llari. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 41-45.
29. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
30. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
31. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
32. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti